

## **QURILISHDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH USULLARI**

*SH.Mustafayev*

*TKTI Yangiyer filiali*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada qurilish sohasidagi samaradorlikni oshirish usullari ko'rib chiqilgan hamda qurilish sohasidagi hom ashyolarni tejash usullari tahlil qilingan.

*Kalit so'zlar.* Samaradorlik, kapital qurilish, material, loyihalash, resurs, konstruksiya, tannarx, spool toshlar.

Zaxiralarni qidirib topish, kapital qurilishda ashyo sifatida uning sarfini qisqartirishning hamma yo'laridan foydalanish va mehnat xarajatlari eng kam bo'lgan eng yuqori samaradorlikka erishish ilmiy-tekshirish, loyihalash, qurilish-montaj tashkilotlarining ehtiyojlari uchun konstruksiyalar ishlab chiqaradigan korxonalarining birinchi galdagi vazifalari hisoblanadi.

Qurilish ashyolarini tejash quyidagicha belgilanadi:

- ashyo resurslarining nisbatan cheklanganligi;
- ulardan foydalanish ko'lamining tobora ortib borayotganligi;-

Fan va texnika taraqqiyoti sharoitida tejamkorlik muammosining qurilish ashyolari ishlab chiqarishni takomillashtirish vazifalari bilan uzviy bog'lanib ketishi;

- qurilish ashyolari ishlab chiqarish muammolari va ularning iste'moli o'rtasidagi bog'lanishning murakkabligi.

Bundan tashqari, qurilish ashyolari ishlab chiqarishda marketing tizimini shakllantirish zarur.

Soha olimlarining, qurilish mutaxassislarining va loyihachilarning kuch-g'ayratlari quyidagilarga qaratilgan bo'lishi lozim:

- o'zining mustahkamligi, chidamliligi va tannarxini arzonlashtirishga doir

ko'rsatkichlar bo'yicha boshqalarga qaraganda ustun turadigan samarali qurilish ashyolari va konstruksiyalari yaratish;

- qurilish konstruksiyalari va buyumlarini mo'ljallangan joyda ratsional ishlatish va taqchil qurilish ashyolarini ular bilan almashtirish;

- ashyo va mehnat resurslarini kam sarflagan holda inshootlarni samarali loyihalash va to'g'ri qurish.

Qurilish inshootlarining tannarxini kamaytirishda bir hajm birligining buyum yoki konstruksiya uchun sarflangan xarajatlar nisbati <<ashyolar xarajati>> deb ataladi va uni to'g'ri, aniq hisoblash katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Respublikamizda yirik qurilishlarga sarflanayotgan ashyolar xarajatini bir foizga kamaytirishga erishilsa, xalq xo'jaligidan tushadigan mahalliy daromad ancha ortishi mumkin.

Xalq xo'jaligida qurilish yo'nalishiga eng ko'p miqdorda <<ashyolar xarajati>> talab etiladi.

Respublikamiz qurilish sanoati uchun sarflanayotgan ashyolar xarajatini kamaytirishning asosiy yo'llari quyidagilardir:

- ilgo'r xorijiy texnologiyalarni o'rganish hamda ilmiy-texnik ishlanmalarga asoslangan yangi qurilish ashyolarini ishlab chiqarish:

- loyiha ishlarini takomillashtirish :

- sanoat chiqindilari asosida samarali qurilish ashyolarini ishlab chiqarish; xom-ashyolarni qayta ishlashda hamda transport vositalarini ishlatilishida tejamkorlikka e'tibor berish.

Samarali qurilish ashyolari va buyumlarini ishlab chiqarishda muhim ishlardan biri ularning sifatli bo'lishligiga hamda ularning og'irligini kamaytirishga erishishdir. Bu esa inshoot va buyumlar uchun sarflanadigan kundalik xarajatni tejashga va transport vositalaridan unumli foydalanishga imkon beradi. Masalan, Issiqlik o'tkazuvchanligiga qarab oddiy g'isht o'rniga samarali (serg'ovak yoki ko'p teshikli) g'ishtlar ishlatilsa, devorga sarflanadigan xarajatni 1,8-2,0 barobarga kamaytirish mumkin.

Oddiy g'isht o'rnida yirik spool toshlar ishlatilsa, choklarning kamayishi

hisobiga qurilish qorishmalarini 20-25% ini tejash mumkin bo'ladi.1- jadvalda binoning tashqi devorini qurishda ashyolar xarajatini kamaytirishga doir iqtisodiy ko'rsatkichlar yoritilgan.

T/r	Devorbop panellar turlari	Zichligi, kg/m <sup>3</sup>	Devorning qalinligi, sm	1m <sup>2</sup> devorning og'irligi, kg
1	Keramzit betonli	1100	30	360
2	Agloporit betonli	900	26	260
3	Toshqol betonli	1300	35	480

Engil temir-beton konstruksiyalar keng miqyosda ishlatilishi natijasida binonig og'irligi 25-35% gacha, sement va po'lat xarajati 10% ga kamayadi. Qurilish ashyolarining tannarxini asosan ishlatildigan xom ashyo, transport va hozirgi paytda dolzarb bo'layotgan yoqilg'i xarajatlari tashkil etadi.

Yoqilg'ini tejash uchun texnologik jarayonni hozirgi fan-texnika yutuqlariga asoslangan holda joriy etish lozimdir. Jumladan, issiqlik energiyasining texnologik jarayonga ta'sir kuchini oshirish, uskuna va mashinalarning ishlash tizimini takomillashtirish, namligi kam bo'lgan xom ashyolarni ishlatish, ikkilamchi mahsulotlar va sanoat chiqindilaridan foydalanish singari tadbirlar yoqilg'i xarajatini kamaytirishga imkon beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. И.И.Чичерин *Общестроительные работы*. Учебник М-1989 297-300 стр.
2. Э.Косимов Ш.А.Х абибуллаев. *Архитектуравий ашёшунослик*. ТАКИ. Т-2000
3. E.Qosimov ,*Qurilish ashyolari*, Т “Mehnat”, 2004-494-497 bet